

2019 yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyatida sanoatishlab chiqarishning rivojlanishi

Raq'amlar:

➤ Sanoat ishlab chiqarish hajmi 15,2 trln.so'm.

➤ Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 21,8 %.


➤ Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 101,8 %;

➤ Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 15,7 %.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-aprel oylarida Toshkent viloyati korxonalari tomonidan 15,2 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbati sanoat ishlab chiqarish indeksi 109,0 % ni tashkil etdi.

Sanoatning, tog'-kon va ochiq konlarni ishlab chiqarish -3,6 % ga kamayishi, qayta ishlash 16,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 3,0 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalarida 18,5 % ga o'sishi kuzatildi.

Yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 538,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,5 % ni tashkil etdi.



2019 yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlarini tarkibi	<i>mlrd. So'm</i>	O'sish sur'ati, %
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, <i>Indeksi %da</i>	15282,4	109,0
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash	538,1	96,4
shu jumladan:		
Ko'mir va lignit qazib olish	163,9	81,3
Metal rudalarini qazib olish	340,1	102,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlashda xizmatlar	34,1	102,8

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13084,3 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,6 % ini tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini tarkibi	<i>mlrd. So'm</i>	O'sish sur'ati,%
-------------------------------	-------------------	------------------

Qayta ishlash sanoati		13084,3	116,5
-----------------------	---	---------	-------

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar ishlab chiqarish		1187,3	97,4
To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish		1177,3	108,9
Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish		184,6	105,9
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish		20,3	140,4

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	O'sish sur'ati,%
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish		15,6	398,9
Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish		1103,5	118,2
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish		61,9	100,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish		810,9	116,8
Metallurgiya sanoati		7203,8	120,1
Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish		1088,6	133,3

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1606,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,5 % ni) tashkil etdi. 2019-yilning yanvar-aprel oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	O'sish sur'ati, %
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash		1606,7	103,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlarini tarkibi		<i>mlrd. So'm</i>	O'sish sur'ati, %
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish		53,3	118,5

Ishlab chiqarilgan xalq iste'moli mollari

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llabquvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2401,0 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 15,7 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 49,4 % dan 2019-yilning yanvar-aprel oylarida 50,2 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 9,2 % ni (2018-yil yanvar-aprel oylarida 10,9 %) tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti
turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo'yicha)**

Sanoat mahsulotlari nomi	O'lchov birliqi	2019 yil yanvar- aprel	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
-------------------------------------	----------------------------	---------------------------------------	---

Qayta ishlash sanoati

Tarkibida ikkita ta'minlovchi element– azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	<i>ming tonna</i>	97,7	145,0
Aroq	<i>mingl. 100% spirt</i>	5283,3	73,8
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	<i>ming l. 100% spirt</i>	16	110,1
Uzum vinosi	<i>ming l.</i>	362,1	64,8
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	<i>ming l.</i>	27455,5	98,4
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	25103,5	65,3
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g	<i>tn.</i>	315,4	37,3
Tozalangan paxta, soya yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn</i>	3735,1	2,26 barobar


Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	19,1	73,1
Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	31,5	73,8
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	1677	74,8

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	81,3	95,0
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	1142,9	95,5


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 36,8 % ulushini), Bekobod (13,1 %), Chirchiq shahar (8,4 %) Zangiota tumani (6,3 %), Angren shahar, (5.8 %) Qibray tumani (4,9 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va maxalliy ahamiyatga ega korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da


Hududlar kesimida Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmaliq shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98.4 %), Bekobod (97,7 %), Nurafshon (95,4 %) va Angren (78,9 %).



Shu bilan birga, eng kichkina ulush Yangiyo'l (2,5 %), Toshkent (2,7 %), Yuqorichichiq (4,4 %) va Chinoz (22,6 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yil yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning viloyat darajasi (5264,7 ming so'm), Olmaliq shahrida (43533,3 ming so'm), Bekobod shahrida (21284,0 ming so'm), Ohangaron shahrida (8787,8 ming so'm) va Nurafshon (9641,2 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 827,1 ming so'm bo'lgani holda Ohangaron shahrida 1420,3 ming so'mni, Yangiyo'l shahrida 1010,3 ming so'mni, Chirchiq shahrida 1201,9 ming so'mni, Zangiota tumanida 2672,0 ming so'mni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yuqorichirchiq tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,7 %), Parkent (85,3 %), Oqqo'rg'on (83,0 %) va O'rtachirchiq tumani (73 %). Shu bilan birga, eng kichkina ulush Olmaliq shahri (1,5 %), Bekobod shahri (2,2 %), Nurafshon shahri (4,6 %), Ohongaron (14,1 %) shaharlarida kuzatildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-aprel oylarida umumiy sanoat korxonalarini soni, birlikda



Toshkent viloyati bo'yicha jami ro'xatan o'tgan sanoat korxonalar soni 7489 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (22,9 %)ga oshgan, faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar soni 6405 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (18,7 %)ga oshgan, faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sanoat korxonalar soni 1084 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (55,7 %)ga oshgan, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni 820 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (83,4 %)ga oshgan, foliyati to'xtatilgan sanoat korxonalar soni 59 o'tgan yilning shu davriga nisbatan (16,9 %)ga tushgan.

**Toshkent viloyati hududlar bo'yicha
2019 yil yanvar-aprel oylarida umumiy sanoat
korxonalari soni**

Hududlar bo'yicha ro'xatdan o'tgan eng ko'p sanoat korxonalari Zangiota (1103 ta bundan 971 ta faoliyat korsatadi), Qibray (715 ta bundan 565 ta faoliyat korsatadi), Toshkent (625 ta bundan 517 ta faoliyat korsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Eng kam sanoat korxonalari Oqqo'rg'on (142 ta bundan 118 ta faoliyat korsatadi), Bekobod (150 ta bundan 132 ta faoliyat korsatadi) tumanlariga to'g'ri kela

**Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi sanoat statistikasi
bo'limi**Nashr uchun ma'sul:

R.Avliyakulova
(71)230 86 66